

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KONSEPT

Altinboyev Nuriddin Abdumannonovich

JOKU va TDSHU katta o'qituvchisi, PhD

nuriddinaltinbaev@gmail.com

ORCID NO: 0009-0000-5113-0030

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida asosiy termin sifatida qo'llanilayotgan konsept haqida so'z boradi. Xususan lingvomadaniyatshunoslik fanida konseptning o'rni, mazkur terminning paydo bo'lishi va qo'llanilish sohalari haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. Konseptga berilgan ta'riflar va metafora bilan aloqadorlik jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: antroposentrik, konsept, Lingvomadaniyatshunoslik, Muloqot vositasi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается понятие, используемое в качестве ключевого термина в современных областях языкознания. В частности, подробно рассматривается роль данного понятия в лингвокультурологических исследованиях, возникновение этого термина и сферы его применения. Рассматриваются определения данного понятия и аспекты, связанные с метафорой.

Ключевые слова: антропоцентризм, концепт, лингвистика, средство коммуникации.

ABSTRACT

This article examines the concept used as a key term in modern fields of linguistics. In particular, the role of this concept in cultural linguistic studies, the emergence of this term and the spheres of its application are discussed in detail. The definitions of this concept and aspects related to metaphor are considered.

Keywords: anthropocentric, concept, linguistics, communication tool.

KIRISH

Hozirgi kundagi antroposentrik tadqiqotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri lingvomadaniyatshunoslikdir. Lingvomadaniyatshunoslik tilni madaniy voqelik sifatida yoki aksincha, madaniyatning tilda qay tarzda namoyon bo'lishini tadqiq qiladi hamda u tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada paydo bo'ladi. Til va madaniyat bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Zero, madaniyat xalqning ijtimoiy va tarixiy jarayonida vujudga kelgan, jamiyat taraqqiyotida tarixan erishilgan,

sivilizatsiya bosqichini xarakterlaydigan moddiy va ma'naviy xususiyatlarning majmuidir[11]. Til esa madaniy ma'lumotlarni uzatish vositasi sifatida xalqlarning madaniyati, dunyoqarashi, moddiy va ma'naviy turmu-shining xususiyatlarini yaqqol namoyon qiladi. Til – madaniyat ko'zgusi, unda xalqning o'z-o'zini anglashi, mentaliteti, milliyligi, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlar, axloqiy me'yorlari, qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi, olamga munosabati aks etadi[20]. Bu esa tilshunoslikka shaxsni shakllantiruvchi gumanitar bilimlarning majburiy qismi sifatida qarash imkonini beradi.

Muloqot vositasi sifatida ta'riflash mumkin bo'lgan til insoni-yatning bebaho boyligi va kelajak avlodlarga qoldiradigan buyuk va qudratli merosidir. Chunki til "umumiy va muntazam tarzda millionlab odamlarning minglab yillar davomida singib ketgan e'tiqodlari va tajribadan o'tgan haqiqatlari ombori" [5] sanaladi. Har bir xalqning moddiy, ma'naviy, diniy, axloqiy va ijtimoiy-madaniy tuzilishi bilan ular foydalanadigan til o'rtasida zaruriy va muqarrar bog'liqlik mavjud. Boshqacha aytganda, mushtarak madaniyat va sivilizatsiya mahsuli bo'lgan tilda xalqlar ruhi, o'ziga xosligi, ong-u shuuri aniq aks etadi. Til madaniyatning eng muhim tashuvchisi va uzatuvchisi bo'lsa-da, bu jarayondan eng ko'p yana tilning o'zi ta'sirga uchraydi. Chunki tilni oziqlantiruvchi, ko'paytiruvchi, davolovchi, o'zgartiruvchi, turli ma'no qatlamlarining shakllani-shini ta'minlovchi ijtimoiy madaniyatdir[1]. Shuning uchun madaniyatshunoslik va tilshunoslik o'rtasida muhim va sezilarli parallellik mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik masalalarini o'rganish XVIII asrning oxirlariga borib taqaladi. Tilshunos olimlardan Vilhelm fon Humbold (1767-1835), Franz Boas (1858-1942) va Benjamin Uorf (1897-1941) til, tushuncha va madaniyat masalalari xususida to'xtalganlar. Biroq o'sha paytlar til va madaniyat munosabatlarini birgalikda tadqiq qiluvchi fanlar ichidagi qo'shma fan (lingvomadaniyatshunoslik) to'laligicha rivojlanmagan. Til va madaniyat masalasida bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, o'tgan asrda tilga nisbatan kognitiv tizim, ijtimoiy amaliyot, kompleks moslashgan tizim degan qarashlar o'rta tashlangan va hatto, Xalqaro kognitiv tilshunoslik assotsiatsiyasi (ICLA) tashkil qilingan bo'lsa[24], o'z navbatida madaniyatga nisbatan ham kognitiv tizim, ramziy (simvolik) tizim, ijtimoiy amaliyot yoki tuzilma[25] sifatida qaralganligining guvohi bo'lishi-miz mumkin. Keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, har ikkala hodisaning o'zaro bog'liq tomonlari mavjud. Mazkur ikki hodisani birgalikda o'rganish yangi bilim sohasi – lingvomadaniyatshunoslik fanining dunyoga kelishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Lingvomadaniyatshunoslik termini tilshunoslar tomonidan turlicha atalgan. Masalan, Palmer¹ “Cultural linguistics” (madaniy tilshunoslik) deb atagan bo‘lsa, Underhill², Yevropada til va madaniyat munosabatlarini tadqiq qiluvchi soha sifatida, “ethnolinguistics” (etnolingvistika) terminini qo‘llaydi. Professor Farzad Sharifian³ ham mazkur yangi soha uchun o‘zining barcha ilmiy ishlarida “cultural linguistics” terminini qo‘llaydi. Tadqiqot ishimiz turk maqollarini lingvomadaniy tadqiq qilish bilan bog‘liq bo‘lgani bois turk tilshunosligida mazkur terminning qanday atalishiga ham to‘xtalib o‘tsak. Hozirgi turk tilshunosligida mazkur soha hozircha yetarli darajada o‘rganilmagan, bu yo‘nalishda tadqiqotlar soni barmoq bilan sanarli darajada. Bu borada amalga oshirilgan dastlabki ish O. Kozan to‘plagan va muharrirlik qilgan *Kültürdilbilim: Temel Kavramlar ve Sorunlar* (Lingvomadaniyatshunoslik: Asosiy tushunchalar va muammolar) tarjima kitobi bo‘lib, mazkur to‘plam O.Kozanga oid *Kültürdilbilim nedir?* (*Lingvomadaniyatshunoslik nima?*) nomli kirish so‘zi o‘rnidagi maqolasi va yigirma to‘rtta sohaga oid rus tilidagi maqolalarning tarjimasidan iborat. Mazkur kitob Turkiyaning G‘oziy universiteti doktorantlari tomonidan tayyorlanib turk tilshunosligiga armug‘on qilindi. Kitobning ahamiyati faqatgina tarjimasi bilan cheklanmaydi, balki turk tilshunosligida yangi terminlarning paydo bo‘lishi bilan ham ahamiyatlidir.

Umuman olganda bu soha rus tilshunoslik maktabining mahsuli hisoblanadi. Mazkur tushuncha asosida XX asrning oxirgi choragida mustaqil fan sifatida paydo bo‘lgan lingvomadaniyatshunoslik V.Teliya boshchiligidagi iboralar maktabi tadqiqotlari asosida Yu.Stepanov, N.Arutyunova, V.Vorobev, V. Shaklein, V.Maslova kabi izlanuvchilarning ishlari bilan bog‘liq ravishda rivojlandi[14]. V.Maslova xalqning o‘tmish asrlarga oid qarashlari tildagi maqollarda, frazeologik birliklarda, metaforalarda va madaniy ramzlarda hozirgi kunga qadar saqlanib qolganligini bayon qilib, mazkur fanning tadqiqot doirasini quyidagicha izoh-laydi: “Lingvomadaniyatshunoslik, asosan, afsonalar, urf-odatlar, an‘analari, marosimlar, madaniyat ramzlari va boshqalarni o‘rga-nadi. Ushbu tushunchalar madaniyatga tegishli bo‘lib, ular kundalik va marosimlardagi aloqa-munosabatlar shaklida tilda mustahkamlanadi. Ularni kuzatish mazkur tadqiqot uchun material bo‘lib xizmat qiladi”[12]. Qadriyatlar va stereotiplar uzoq vaqt davomida iqtisodiy va ijtimoiy

¹Palmer, B. Gary, Toward a Theory of Cultural Linguistics (Lingvokulturologiya nazariyasi tomon) kitobi va bir qator maqolalar muallifi, Nevada Universiteti professori

²Underhill, James W., Ethnolinguistics and Cultural Concepts: Truth, Love, Hate and War (Etnolingvistika va madaniy konseptlar: haqiqat, sevgi, nafrat va urush) kitobi va bir qator boshqa kitob va maqolalar muallifi, Rouen Universiteti (Fransiya) professori.

³Sharifian, Farzad (1964-2020) lingvokulturologiya borasida qator kitob va maqolalar muallifi, Monash Universiteti (Avstraliya) professori

faoliyatni tartibga soluvchi majoziy ifodalarda, ya'ni maqol va matallarda o'z aksini topadi.

NATIJALAR

Lingvomadaniyatshunoslikning o'rganish predmeti sifatida madaniy tizimdagi ramziy, etalonlashgan, obrazli-metaforik mohiyatga ega bo'lgan hamda mif, afsona, rituallar, urf-odat, folklor va diniy diskurslarda, nasriy va nazmiy matnlarda, ibora va metaforlarda, maqol va matallarda amal qiladigan sof insoniy arxetipik va prototipik bilish natijalarini umumlashtiruvchi til birliklarida namoyon bo'ladi. Xalq maqollari lingvistik tahlilga tilshunoslikning yangi paradigmalari paydo bo'lishi natijasi o'laroq tortilmoqda[8]. Zamonaviy tilshunoslikning, xususan, lingvomadaniyatshunoslikning o'rganish predmeti sifatida maqollar alohida ajralib turadi. Bu sohaga kirish va uning tahlillarini olib borish uchun asosiy "kalit" konseptdir. Maqollar madaniy konseptni yoritishga xizmat qiluvchi logoepistema hisoblanadi. Logoepistema (episteme — yunoncha «bilim») — til birligida saqlanadigan bilim tilini tavsiflash va o'zlashtirish semiotik tizimining birligi; til (belgilovchi) va madaniyat (belgilangan) darajasida tushunishni talab qiladigan belgi[23] deya ta'riflanadi. Maqollar, matallar, frazeologik birliklar, qanotli so'zlar va pretse-dent matnlar ko'rinishidagi moddiy shakl orqali logoepistemalar etnosning bilimi, fikri, an'analari, urf-odatlari, belgilari, g'oyalari, uning milliy xarakterining xususiyatlarini ifodalaydi. Logoepistema lingvistik birliklarga qaraganda mamlakatga xos ma'lumotlar hajmi jihatidan ko'proq va kengroq, to'yinganlik darajasi jihatidan chuqurroq va boyroq ma'lumot hisoblanadi, ya'ni maqol madaniy konseptni to'liq yoritib berish uchun eng asosiy manba vazifasini bajaradi. Chunki maqollar obrazli-metaforik va qadriyatga asoslangan (baholovchi) bilim va tajriba yig'indisi sanaladi.

Lingvomadaniy nuqtayi nazardan konsept madaniyatning asosiy birligi hisoblanib, uning tarkibiga uni shunday birlik deb hisoblashga asos bo'la oladigan belgilar, ya'ni etimologiyasi, konsept tarixi, zamonaviy assotsiasiyalari, unga munosabat yoki baholash va boshqalar kiradi. U milliy mental qurilma bo'lib, uning mazmun jihatini ma'lum obyekt haqidagi bilimlarning jami tashkil etsa, shakliy tomoni lisoniy (leksik, frazeologik, paremiologik) birliklar majmuidir. Konsept har qanday emas, balki umuminsoniy va milliy madaniyatga daxldor bo'lgan mohiyatni aks ettiruvchi tushunchadir. Buni madaniy konsept deb atasak to'g'riroq bo'ladi, zero milliy madaniyatga daxldor bo'lmagan tushunchalar ham konsept bo'la oladi. Masalan, daraxtni olaylik, u haqidagi barcha bilimlarimiz daraxt konseptini tashkil qiladi. Lekin majnuntol desak, o'zbeklar uchun; archa desak xristian dinidagi millatlar uchun o'ziga xos madaniy konseptni ifodalaydi.

Yu. Stepanov fikriga ko'ra "konsept – bu inson ongidagi madaniyat va madaniyatni ifodalab beradigan tushunchalar yig'indisi... va boshqa tomondan konsept – bu uning vositasida insonning madaniyatga kirishidir"[19]. Bola qaysi madaniyat vakil-lari orasida ulg'aysa, o'sha madaniyat ko'rinishlarini o'zida aks ettiradi. Buni ijtimoiy tarmoqdagi bir videorolik orqali misol qilib keltirmoqchiman. Unda musulmon davlatdan bir yigit metroda katta yoshli rus kishiga joy beradi. Haligi kishi yigitga qarab, nega o'rningdan turding, nima men senga qarimanmi? - deydi jahl bilan. Yigit muammo chiqishini xohlamay eshik tomon uzoqlashadi, ortidan kelib yana qat'iy ohangda so'raydi. Shunda yigit: "Menga qarang, muhtaram zot, gap sizda emas, gap mening o'zimda, tarbiyamda. Men hech qachon yonimda katta yoshli odam tursa o'tirmayman. Xohlang o'tiring, xohlamasangiz yo'q", deydi. Shunda haligi kishi o'zining nafaqadagi harbiy psixolog ekanligini, yigitni o'rnidan turg'izgan narsa nima ekanligiga qiziqqanini aytadi. Yigit bilan chamasi tengqur qizi borligini uyga kirganida biror marta o'rnidan turmaganligini qo'shib qo'yadi. Mazkur misoldagi yigit ham o'zi voyaga yetgan madaniyat izlarini xatti-harakatlarida namoyon qilmoqda.

J. Matnazarovning fikricha, lingvomadaniy konsept shartli ravishda mental birlik sifatida tushuniladi. Uni tilda, tafakkurda va madaniyatda jamlovchi birlik sifatida qo'llaydi. Tafakkur – kon-septning joylashuv maydoni, madaniyat konseptni aniqlashtiradi; til yoki nutq – konseptning namoyon bo'lish sathi hisoblanadi. Milliy madaniy so'zlar, frazeologik birliklar, milliylikni aks ettiruv-chi badiiy asarlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Konseptni olimlar turli zonalarga bo'lishadi: a) asosiy zona – intrazona va ekstrazona; qo'shimcha zona – kvazizona va kvaziekstrazona;[17] b) asl ma'no (so'zning ichki jihati), passiv (tarixiy qism), zamonaviy (dolzarb va faol qism); c) yadroviy zona va periferik zonalar. Yadroviy va periferik zonalarining mutanosib-ligi konsept strukturasi belgilab beradi. Tilshunoslikda konsept lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa sifatida qoraladi[4].

Konseptni har bir millat o'z dunyoqarashi va mentaliteti orqali tasavvur qiladi. Bu voqelik kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik jihatidan olamning lisoniy manzarasi sifatida qoraladi. Lingvomadaniyatshunoslikda **olamning lisoniy manza-rasi** (OLM) nimani anglatadi? OLM inson faoliyati jarayonida dunyoni bilish natijalarining so'zda qayd etilishi, borliq haqidagi obyektiv bilimlarni to'ldiruvchi va lisoniy shakllarda muhrlangan bilimlar majmuasidir. Uni yaratishda xalq hayotining ko'zgusi bo'lgan frazeologizmlar alohida ahamiyatga ega[22]. Chunki frazeologizmlar o'sha xalqning taxixiy-madaniy an'analari, hayotiy tajri-balari, qadriyatlar bilan bog'liq hisoblanadi. Biror konseptni mukammalroq o'rganish uchun

shu konseptni turli tillarda solish-tirib, uning turli millatlar madaniyati, kundalik hayoti va mentali-tetida tutgan o'rnini aniqlash zarur.

Birinchi bor bu termini rus ilm-fanida 1928-yilda S. Askoldov qo'llagan. Olim konseptni ko'pgina noaniq predmetlar, harakatlar, voqeliklarni fikrlash jarayonida o'rnini to'ldiruvchi tafakkur shakli deb izohlaydi[2] (rivojlanish konsepti, haqiqatgo'ylik, matematik konseptlar). Taxminan, o'sha vaqtlarda D.S. Lixachev konseptni til sohibining salohiyati, shaxsiy, professional va ijtimoiy tajribasidan kelib chiqib, qo'llaydigan va talqin qiladigan umumxulosaviy tafakkur birligi deb izohlaydi va til sohiblarining tafakkuridagi aniq bir so'zning o'ziga xos turli ma'nolarining umumlashmasi, muloqot qilayotganlarga ular orasida mavjud so'zlarni tushunishdagi individual farqlarni bartaraf qilish imko-nini beradi. D.S. Lixachev fikriga ko'ra, konsept til mohiyatidan paydo bo'lmaydi, balki so'zlovchining shaxsiy hayotiy tajribasi bilan o'zlashtirilgan bilimlari to'qnashuvi hisoblanadi[10]. Konsept bu holatda D.S. Lixachev tushunchasiga asosan muloqot tilida o'rindoshlik vazifasini bajaradi.

V. Karasik turli olimlarning konsept borasidagi qarashlariga o'zining munosabatini bildiradi. Ular sirasiga quyidagilarni kiritamiz:

– Konsept – o'zida abstrakt, aniq assotsiatsiyaga ega, emotsional baholovchi belgilar hamda tushunchaning zichlangan tarixini aks ettiruvchi g'oyadir[19]. Bunda biror narsa-hodisa borasida xalq tafakkuridagi tushuncha ijobiy yoki salbiy, yaxshi yoki yomon, to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi bilan baholanadi;

– Konsept – bu shaxsiy tushuncha, ob'yektiv ma'noning tahlili va ma'noning minimal sarmazmun mohiyatidir[10]. Masalan to'y konseptini olaylik. Ba'zi kishilar uchun katta xarajatni anglatadi, ba'zilar uchun o'yin-kulgu, shirin taomlar, boshqa birovlar uchun esa yangi muommolarga tayyor turishni anglatadi. Bu holat millatlar va kishilar orasida o'zgarib turadi.

– Konsept – aniq bir maishiy mohiyat asosida yaratilgan ilmiy, abstrak tushuncha[18]. Ya'ni moddiy narsa-buyumlardan tortib, ma'naviy tushunchalarni ham o'zida qamrab oladi.

V. Karasikning o'zi konseptga quyidagicha ta'rif beradi: konsept – inson ongida saqlanuvchi tajribaning anglangan, tiplar-ga ajratilgan fragmentlarni o'zida aks ettiruvchi mental bilim; konsept ko'p o'lchamli mental bilim bo'lib, uning tarkibida obraz-li-intuitiv, tushunchaviy hamda baholovchi qirralari yaqqol namoyon bo'ladi[6].

Konsept – lisoniy birliklar (masalan, so'z, gap, matn kabilar) orqali yuzaga chiquvchi fikrlash jarayonining natijasi (hosili) dir. Konsept bizning psixikamizda aks etuvchi obyektiv borliq pred-met va hodisalari haqida juda keng miqyosda

mukammal, har tomonlama ma'lumot, tushuncha, tasavvurlarni o'zida tashishi, saqlashi, o'zgaga yetkazishi (berishi) bilan jamiyat a'zolarining predmet va hodisalarga bo'lgan munosabatini qayd etishi bilan o'ziga xosdir[16].

MUHOKAMA

Konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalar-ning asosini tashkil qiladi, ular uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Odatda, konseptning umumiy xususiyatlari sifatida uning ichki tuzilish jihatidan aniq ko'rinishga ega emasligi qayd qilinadi, biroq bu qayd unchalik haqiqatga yaqin emas. Zero, konseptning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilam-chi o'rinni egallagan bo'laklari mavhumlikka ega bo'lishi bilan birgalikda ular yagona negiz (yadroviy asos) atrofida o'zaro munosabatga kirishib birikadilar. Shu sababli konsept tarkibining tizimli xarakterga ega ekanligini e'tirof etish ma'quldir. Uning tizimli xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab va tartibli bo'lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo'ladi[13]. Umuman olganda, *konsept* va *madaniy konsept*ni bir biridan ajratib olish zarur. *Konsept* har qanday narsa-buyum, voqea-hodisa, his-tuyg'u haqidagi bilimlar yig'indisi bo'lsa, *madaniy konsept* biror bir xalq madaniyatida narsa-buyum, voqea-hodisa, his-tuyg'uning alohidalik aks etishidir. Bir nom ostidagi konseptlar boshqa-boshqa xalqlarda umumiylik va xususiylik ifodalashi mumkin. Shu nuqtayi nazardan lingvomadaniyatshunoslikning qiyosiy lingvomadaniyat-shunoslik, diaxronik lingvomadaniyatshunoslik, sinxron lingvomadaniyat-shunoslik kabi yo'nalishlari mavjud bo'lib, barchasida konseptlar turli tomondan tahlilga tortiladi. Bizning fikrimizcha, madaniy konsept umuminsoniy birlikning milliy qadriyatlar, milliy obrazlar bilan boyitilgan tushunchalar yig'indisidir. Uning boyish manbasi esa jamiyatda ro'y bergan hodisasalar, shaxsiy tajribalar va o'xshatishlar hisoblanadi.

Murakkab hodisa yoki tuzilma bo'lgan konsept tabiiy ravishda bir qator tadqiq qilish usullarini talab qiladi. Konseptni tadqiq qilish usullarini D.Valeyeva o'zining "О методах исследования концепта" nomli maqolasida quyidagicha sanab o'tadi: leksikografik tadqiqot usuli, komponentlarni tahlil qilish, so'z yasalishi tahlili, so'zning ichki shaklini o'rganish, sintagmatik tahlil (tarqatuvchi), leksik-semantik guruhlarini tadqiq qilish, paremiologik tahlil, kontekstual tahlil, eksperimental usullar[3]. Bizning tadqiqot ishimiz maqollar doirasida bo'lganligi bois paremiologik tahlil va konseptual tahlil usullaridan foydalanamiz.

Konseptni tahlil qilishda S.Vorkachev, V. Karasik, G. Slisshkin-lar tomonidan taklif qilingan, kontsept tarkibida tushunchaviy, baholovchi va obrazli komponentlarni ajratib ko'rsatish biz uchun ahamiyatlidir[4]. Ushbu talqinda tushunchaviy komponent kon-septning asosiy xususiyatlarini aks ettiradi, u "ongda

verbal shaklda saqlanadi va bevosita nutqda takrorlanishi mumkin”[7]. Baholovchi komponenti ushbu kontseptning ma’lum bir madaniyatdagi o’rni haqidagi ma’lumotlarni o’z ichiga oladi, konsept bilan bog’liq bo’lgan assotsiatsiyalarni belgilaydi va konsept tarkibida ustunlik qiladi. Konseptning obrazli elementi inson ongida nover-bal shaklda saqlanadi, nutqda bevosita takrorlanmaydi va leksik nomlarda mustahkamlangan kognitiv metaforalarga ishora qiladi. Natijada konseptning obrazli komponentini ajratib olish va izohlash uchun tilda konseptual ma’nolarning metaforik nominatsiyalari bilan ifodalangan konseptual metaforalar majmuasini aniqlash zarur.

Metafora kognitiv tilshunoslikda inson tafakkuri va inson tilining hodisasi sifatida talqin qilinadi va inson tajribasini izohlash vositasi sifatida tushuniladi. J.Lakoff va M. Jonson inson tafakkuri-ning metaforik mohiyati haqida shunday xulosaga kelishadi: konseptual tizimning o’zida mavjud bo’lgan va lisoniy ma’lumotlarda namoyon bo’ladigan metaforalar idrokimizni, fikrlashimizni va harakatlarimizni belgilab beradi[9]. Metaforani tushunish ongimizda mavjud bo’lgan odatiy sxemalarga yoki yangi vaziyatlarni umumlashtirish mumkin bo’lgan modellarga asoslanadi. Bunday sxemalar bizning oldingi tajribamizni, yangi kelgan ma’lumotni oldingi tajribadan olingan odatiy, takrorlanadigan qismlarga bo’lish xususiyatini aniqlaydi. Ushbu sxemalarning tahlili OLM ning majoziy qismlarini qayta yaratishga imkon beradi, ularda milliy dunyoqarash aks etadi[15]. Maqollarda ham xuddi shu holat yuz berishini kuzatish mumkin. Xalq tajribalari qolip ifodalarga aylanadi va bu ifodalar barcha tajribalarni o’zida mujassam etib, tinglovchi tafakkurida o’zidagi bilim, ko’nikmalar asosida qayta jonlanadi. Lingvomadaniyatshunoslikning o’rganish predmeti sirasida maqollar alohida ajralib turadi. Maqollar ongda stereotip sifatida o’rnashadi, shu asosda inson atrofida va o’zida kechayotgan hodisalarni baholaydi. Tilda borliqni baholashning milliy-madaniy mezon sifatida yashaydi [21]. Shu bilan bir qatorda bu ifodaning ta’sirchanligini ham oshirishga xizmat qiladi. Biror xalqning madaniyatiga kirib borish uning maqollari orqali amalga oshiriladi. Maqol o’zining kelib chiqishi, qo’llanilishi va o’rganilishi nuqtayi nazardan mustaqil bir asardir. Mazkur asarlarning mavzu ko’lami shu qadar kengki, turmushning har jabhasini o’zida qamrab olgan. Oila mavzusi har bir xalq maqollarining salmoqli qismini egallashi tabiiy hol hisoblanadi. Chunki hayotdagi har bir hodisaga munosabat oilada shakllanadi.

XULOSA

Til, madaniyat va inson uchligini birgalikda o’rganish zamonaviy tilshunoslik yo’nalishlarining, ayniqsa, lingvomadaniyatshunoslikning asosini tashkil qiladi. Antroposentrik – inson markazli paradigma xalqlarning madaniyatiga kirib borishda

tilshunoslar uchun yangi “eshik” vazifasini bajarmoqda. Bu eshikning asosiy “kaliti” esa konsept hisoblanadi. Konsept insonni va tabiatni o‘rganuvchi har bir fan sohasining asosiy terminlaridan biri hisoblanadi. Uni matematikadan tortib psixologiyagacha, sotsiologiyadan tilshunoslikkacha bo‘lgan har bir fan sohasida uchratish mumkin. Biroq lingvomadaniyatshu-noslik uchun har qanday emas, balki aynan madaniy konsept asosiy o‘rinda turishini unutmash lozim. Chunki xalqlarning madaniyati tildagi madaniy konseptlardagina namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Akbalik, E. Türk Atasözlerinde Cinsiyet Algısı // Dumlupınar Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi. Sayı 36. – Nisan 2013. – s.81.
2. Аскольдов С.А. Концепт и слово. // Русская словесность. Антология. – М.: Academia, 1997. – с.45
3. Валеева Д.Р. О методах исследования концепта // Филологический аспект, № 1 (33). – 2018. – с. 6-12
4. Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа. – Краснодар, КТУ, 2002. – с.142.
5. Kaplan, M. Dede Korkut Kitabı'nda Kadın // Türk Edebiyatı Üzerine Araştırmalar. – İstanbul: Dergâh Yayınları. 2001. – s.9.
6. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты. Дискурс. – М.: Гнозис, 2004. – с.59 – 390 с
7. Карасик В.И., Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как единица исследования // Методологические проблемы когнитивной лингвистики: научное издание / Под ред. И.А. Стернина. – Воронеж: Воронеж. гос. ун-т, 2001. – с. 75.
8. Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий мухитида халқ мақоллари эвфемизацияси // Филол. фан. бўйича фалс. д-ри. дисс. – Қўқон, 2019. – 41 б.
9. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990.
10. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка//Русская словесность: Антология. – М.: Academia, 1997. – с.90
11. Мардиев Т.К. Инглиз ва ўзбек тилларида инсон туйғулари ифодаланишининг кон-цептуал тахлили. Филол. фан. б. фалс. док. дисс. – Самарқанд, 2019. . – 11 б.
12. Маслова В.А., Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – с.17
13. Матназаров Ж. Концепт тушунчаси ва унинг когнитив тилшунослик ва лингвомадана-ниятшуносликка муносабати // Илм сарчашмалари (Ал-Хоразмий

номидаги Урганч давлат университетининг илмий-методик журнали) 2013/5. . – 64-b.

14. Paşaoğlu C., Rus ve Türk dil dünya görüşlerinde aile konsepti // Avrasya uluslararası araştırmalar dergisi, C.8, Sayı:25. – 2020. – s.165

15. Потураева Е.А. Метафорические обозначения концепта «дом» в русской языковой картине мира // Язык и культура. – 2010. – с. 59

16. Rasulov, R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2013.

17. Слышкин Г.Г. Лингвокультурные концепты и метоконцепты. – Волгоград, «Перемена», 2004. – с. 17-18.

18. Соломоник А. Язык и знаковая система. – М., 1992. – с.246

19. Степанов Ю.С., Константы. Словарь русской культуры. – М.: Академический Проект, 2001. – с.43, с.412.

20. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М., 2000. - С.14.

21. Убайдуллаев Ш.Н., Мансурова К.Х. Ўзбек ва немис тилларидаги мақолларда “меҳнат” концептини вербаллашуви // НамДУ илмий ахборотномаси, Махсус сон. – Наманган, 2021. – 876 б.

22. Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. Bookmany print. – Toshkent, 2022. – 86-87-bb.

23. <https://uchebana5.ru/cont/1672441-p13.html>

24. <https://www.cognitivelinguistics.org/en/about-cognitive-linguistics>

25. <http://dx.doi.org/10.1080/10888691.2020.1789360>